

INSONNING BILISH FAOLIYATI VA KOGNITIV TILSHUNOSLIK

Qazaqova Nozima Abdulboqiyevna,

Namangan davlat universiteti doktoranti, PhD, dotsent

Annotatsiya: Bilish jarayoni inson va jamiyat taraqqiyotining asosi hisoblanadi. Mazkur maqolada insonning bilish faoliyati, bu jarayondagi muhim tushunchalar, kognitiv tilshunoslikning shakllanishi va taraqqiyoti haqida soʻz yuritiladi. Kognitiv tilshunoslikning tushunchaviy apparati tavsiflanadi. Bu boradagi qarashlar umumlashtiriladi.

Kalit soʻzlar: bilish, hissiy bilish, aqliy bilish, sezgi, idrok, tasavvur, freym, konsept, geshtalt, kognitivizm, kognitiv tilshunoslik.

ПОЗНАВАТЕЛЬНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ЧЕЛОВЕКА И КОГНИТИВНАЯ ЛИНГВИСТИКА

Казакова Нозима Абдулбакиевна,

Докторант Наманганского государственного университета,

PhD, доцент

Аннотация: Процесс познания является основой развития человека и общества. В данной статье речь пойдет о познавательной деятельности человека, важных понятиях в этом процессе, становлении и развитии когнитивной лингвистики. Описан понятийный аппарат когнитивной лингвистики. Взгляды на этот вопрос обобщены.

Ключевые слова: познание, чувственное познание, ментальное познание, интуиция, восприятие, воображение, фрейм, концепт, гештальт, когнитивизм, когнитивная лингвистика.

COGNITIVE ACTIVITY OF HUMAN AND COGNITIVE LINGUISTICS

Kazakova Nozima Abdalbakiyevna,

Doctorant of Namangan State University, Phd, docent

Annotation: the process of cognition is the basis of the development of Man and society. This article will talk about the cognitive activity of a person, important concepts in this process, the formation and progress of cognitive linguistics. The

conceptual apparatus of cognitive linguistics is described. The views on this matter are summarized. Keywords: cognition, emotional

KIRISH

Bilish jarayoni insonni inson sifatida shakllantiruvchi, sezish, his qilish, anglash, umumlashtirish, tahlil qilish, qiyoslash, xulosa chiqarish kabi mental hodisalarning amalga oshishini o'z ichiga oluvchi intellectual-aqliy jarayon hisoblanadi hamda shaxsning bilish qobiliyati, kompetensiyasiga tayanadi. Mazkur tushuncha falsafa va mantiqdagi asosiy tushuncha sifatida ko'p asrlardan beri faylasuflarni qiziqtirib keladi. Jumladan, Aristotel mantiq ilmining asoschisi sifatida tafakkurning tushuncha, muhokama, xulosa kabi asosiy shakllariga ta'rif beradi, asoslaydi. Abu Ali ibn Sino moddiy dunyo predmetlarini sezgilar manbai deb hisoblab, ularning obyektiv tabiatini tashqi moddiy dunyo in'ikosi sifatida yoritadi. Bundan tashqari, u sezgini materiyaning xossalaridan biri deb e'tirof etadi. Alloma sezgini materiyaning oliy shakllari bilan bog'laydi. Abu Ali ibn Sino mavjud narsalarni tasniflar ekan, sezgi hayvonlar deb ataluvchi jismlarga xosligini qayd etadi [2. 128].

Adabiyotlar tahlili

Bilish jarayoni va mexanizmlari falsafa va mantiqda, psixologiyada, tilshunoslikda turli nuqtayi nazardan tahlil va talqin qilinadi. Tilshunoslikda til va tafakkur munosabati, mentallik, kognitiv tilshunoslik borasidagi tadqiqotlarda insonning bilish faoliyatiga alohida urg'u beriladi. Jahon va o'zbek tilshunosligida kognitiv tilshunoslik, til va insonning bilish jarayoni haqida bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, jahon tilshunosligida William Croft va Alan Kruzlarning "Cognitive linguistics" nomli tadqiqotida kognitiv tilshunoslikning boshqa yo'nalish va sohalardan farqli jihatlari asoslab beriladi. Konseptualizatsiya, freym, kategorizatsiya tushunchalari tajribalar asosida yoritiladi.[1] Rus tilshunosligida A.V.Maslovaning kognitiv tilshunoslikka oid o'quv qo'llanmasi diqqatga sazovor. Mazkur qo'llanmada kognitiv tilshunoslikka oid jahon va rus tilshunosligidagi tadqiqotlar umumlashtirilgan. Kognitiv tilshunoslikning fan sifatidagi o'ziga xosligi, manbalari, shakllanish bosqichlari, konsept, tushuncha,

ma'no, konsept strukturalari, olamning lisoniy manzarasi, stereotiplar, rus madaniyati konseptosferasi masalalari atroflicha tahlil qilinadi. [4] O'zbek tilshunosligida A.Nurmonov gnoseologiya va tilshunoslik masalasiga alohida to'xtalgan bo'lsa [6], Sh.Safarovning "Kognitiv tilshunoslik" asari mazkur sohaning o'zbek tilshunosligida shakllanishida alohida ahamiyatga ega bo'ldi. [8]

TAHLIL VA NATIJALAR

Bilish jarayonidagi eng muhim tushunchalardan biri bu bilim hisoblanadi. Bilim – kishilarning tabiat va jamiyat hodisalari haqida hosil qilgan voqelik ma'lumotlar, voqelikning inson tafakkurida aks etishi. Kundalik tasavvurimizda nimaning nima ekanligiga ishonsak va bu ishonchimiz biz odatlangan voqea va qoidalarga zid kelmasa bunda ishonch hisoblanadi. Voqelik haqidagi bilgan ma'lumotlarimiz bilim darajasiga ko'tarilishi uchun quyidagi shartlarni qanoatlantirishi lozim: birinchidan, bu ma'lumotlarning voqelikka mutanosibli; ikkinchidan, yetarli darajada ishonarli bo'lishi; uchinchidan, bu ma'lumotlar dalillar bilan asoslangan bo'lishi lozim. Uchala shart birgalikda mavjud ma'lumotlarni bilim darajasiga olib chiqadi. Inson ijtimoiy taraqqiyot jarayonida bilmasliqdan bilishga, mavhum bilimlardan mukammal va aniq bilimlar hosil qilish tomon boradi. Kishining moddiy dunyo to'g'risidagi bilimi nisbiydir, u doimo rivojlanib boradi.

Bilish jarayoni keyingi yillarda tilshunoslikning ham diqqat markazidagi masalalardan biriga aylandi, deyishimiz mumkin. Tilshunoslikda bilish borasidagi qarashlarga o'tishdan avval bilish turlari va ularning o'ziga xosligi haqida quyidagi jadvalni e'tiboringizga havola etsak:

HISSIY BILIS H	His qilish	Inson bilishining shunday shakli, unda kishi o'zo'ziga, atrofdagi narsa-hodisalarga, kishi yoki kishilarga bo'lgan munosabatida o'zining muayyan holatga kirishi, muayyan holda bo'lishidir.
	Sezgi	Hissiy bilishning dastlabki shakllaridan bo'lib, u insonning borliqni bilishining o'ziga xos ko'rinishidir. Sezgi va sezgilar insonning sezgi a'zolariga borliqdagi

		predmet va hodisalarning bevosita yoki bilvosita ta'siri natijasida yuzaga keladigan hissiy obrazlardir.
	Idrok	Borliqdagi predmet va hodisalarni yaxlit holda, bir butun ko'rinishda, ularning hamma asosiy tashqi belgi va xususiyatlarini umumlashtirgan holda in'ikos ettiruvchi hissiy bilishning nisbatan yuqoriroq shaklidir. Idrok predmet va hodisalarning bir butun yaxlit hissiy obrazidir.
	Tasavvur	Insonning tasavvur qiluvchining tajribali tajribasida yaxlit shaklda ilgari sezilmagan yoki umuman sezilmaydigan obyektlarning tasvirlarini, g'oyalarini o'z-o'zidan yaratish yoki ataylab qurish qobiliyatidir (masalan, tarix voqealari, taxmin qilinayotgan kelajak, idrok etilmagan yoki mavjud bo'lmagan dunyo hodisalari, masalan, ertak, afsona va boshqalarning g'ayritabiiy qahramonlari kabi).
AQLIY BILISH		Hissiy bilish bergan ma'lumotlarga suyangan holda insonning predmet va hodisalarni ularning eng muhim tomonlari, mohiyatlarini tafakkur orqali umumlashtirib, mavhumlashtirib va konkretlashtirib, ularni fikrda ifodalanishidir.

Tilshunoslikda bilish jarayoni qaysi nuqtayi nazarlardan tahlil qilinadi? Ma'lumki, til fikrlarni almashish, uzatish vositasi. Uzatilgan fikrlar esa bu bilim, bilish jarayoni natijasi, bu bilim butun olam haqida, so'zlovchining tinglovchi va borliqqa munosabati, fon bilimlar haqida ma'lumot beruvchi axborotdir. Bu bevosita insonning bilish faoliyati bilan aloqadordir. Til bilimlarni shakllantirish, ifodalash, to'plash, ajdoddan avloda yetkazish, milliy mental xususiyatlarni kodlash, dekodlash, anglash vositasidir.

Kognitiv tilshunoslik va kognitivizm tushunchalari bugungi kunda quyidagi ma'nolarni o'zida mujassam etadi:

1. Insonning fikrlash faoliyati mexanizmlari tadqiqotlari dasturi.
 2. Insonga turli kanallar orqali kirib keladigan, uzatiladigan axborotlarni qayta ishlash jarayonini o'rganish.
 3. Olamning mental modeli qurilishi.
 4. Kognitiv aktlarning turli ko'rinishlarini ta'minlovchi tizim qurilishi.
 5. Inson tomonidan bayon qilingan fikrlar va kompyuter dasturlari orqali shakllantirilgan axborotlarni shakllantirish va tushunish.
 6. Matn yaratish va tushunishga xizmat qiluvchi kompyuter dasturlari modellarini yaratish.
 7. Fikrlash aktlariga xizmat qiluvchi psixik jarayonlarning keng spektri [4. 7.]
- Kognitiv tilshunoslikning tushunchaviy apparatini quyidagi xotiraning operativ birliklari tashkil etadi:

1. Freym – stereotipga aylangan vaziyatlar, ssenariylar.
2. Konsept – umumlashma tushunchalar.
3. Geshtalt – olamning tushunchagacha bo'lgan fragmenti.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, insonning bilish mexanizmi murakkab jarayonni o'z ichiga oladi va bir qator bosqichlarni o'z ichiga oladi. Insonning bilish faoliyati nafaqat falsafa va mantiq, balki tilshunoslikning ham tekshirish obyektidir. Insonning bilish faoliyati va fikrlash mexanizmini chuqur o'rganish asosida zamonaviy fanda sun'iy intellekt va kompyuter dasturlariga oid tadqiqotlar faol taraqqiy etmoqda. Kognitiv tilshunoslik olam manzarasining, lisoniy ong qurilishining modellashuvini o'rganadi, tilga kognitiv mexanizm, axborotni kodlash, reprezentatsiya qilish vositasi sifatida yondashadi, deyishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Croft W., Cruse A. Cognitive linguistics. – Cambridge, www.cambridge.org

2. Ибн Сино. Трактат о разделении существующих вещей. – Ташкент: Шарқ, 1983. – 128 б.
3. Лойфман И.Я., Руткевич М.Н. Основы гносеологии. – Екатеринбург, 1996. – 135 с.
4. Маслова В.А. Когнитивная лингвистика. – Москва, 2004. – 255 с.
5. Masharipova G. K. Abu Ali ibn Sinoning borliq va bilish haqidagi falsafiy qarashlari// International Scientific Journal Of Biruni ISSN (E) 2181-2993 Vol. 3, Issue 2. Oct. (2024). – В. 72-80.
6. Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдлик. 1-жилд. – Тошкент, Академнашр, 2012.
7. Xolmanova Z.T. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent, 2007.
8. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Toshkent, 2008.